

BRAZILIYA VA AQSH SAVDO DIPLOMATIYASI SOHASIDAGI ZAMONAVIY AMALIYOT TENDENSIYALARI

Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi

JIDU, Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi 1-kurs magistranti n.sayfullayeva@dtpi.uz

Ishmuradov Bahodir Sunnatovich

JIDU, Xalqaro moliya va investitsiyalar kafedrasi o'qituvchisi +998909863538

ishmuradov@uwed.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Braziliya va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi savdo diplomatiyasining zamonaviy amaliyoti va davlat siyosati tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, eksport-import munosabatlari, soliq tizimidagi islohotlar hamda savdo sohasida imzolangan xalqaro bitimlarning samarasi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, 2020–2025-yillar oralig'ida amalga oshirilgan siyosiy uchrashuvlar va iqtisodiy muzokaralar natijalari asosida o'zaro savdo hajmining o'sish tendensiyalari tahlil etilgan. Maqola Braziliyaning JST doirasidagi tashabbuslari, raqamli bojxona tizimini rivojlantirishdagi sa'y-harakatlari hamda AQSh bilan savdo aloqalarini chuqurlashtirishdagi yutuq va muammolarni yoritadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Braziliya eksport salohiyatini oshirish, soliq tizimini raqamlashtirish va xususiy sektor muammolarini hal etish orqali AQSh bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlashi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Braziliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, savdo diplomatiyasi, eksport, import, investitsiya, JST, ATEC bitimi, iqtisodiy hamkorlik, soliq tizimi, raqamlashtirish, tashqi savdo siyosati.*

Abstract: *This article analyzes the current practice and state policy of trade diplomacy between Brazil and the United States. The study examines the economic cooperation between the two countries, export-import relations, tax system reforms, and the effectiveness of international agreements signed in the field of trade. It also analyzes the growth trends in mutual trade volume based on the results of political meetings and economic negotiations held between 2020 and 2025. The article highlights Brazil's initiatives within the WTO, efforts to develop a digital customs system, and achievements and challenges in deepening trade relations with the United States. The analysis shows that Brazil can further strengthen economic cooperation with the United States by increasing export potential, digitizing the tax system, and addressing private sector challenges.*

Keywords: *Brazil, United States, trade diplomacy, export, import, investment, WTO, ATEC agreement, economic cooperation, tax system, digitalization, foreign trade policy.*

Аннотация: *В статье анализируется текущая практика и государственная политика торговой дипломатии между Бразилией и США. В исследовании рассматриваются экономическое сотрудничество двух стран, экспортно-импортные отношения, реформы налоговой системы и эффективность*

международных соглашений, заключенных в сфере торговли. Также анализируются тенденции роста объема взаимной торговли по результатам политических встреч и экономических переговоров, проведенных в период с 2020 по 2025 год. В статье освещаются инициативы Бразилии в рамках ВТО, усилия по развитию цифровой таможенной системы, а также достижения и проблемы в углублении торговых отношений с США. Анализ показывает, что Бразилия может и далее укреплять экономическое сотрудничество с США за счет повышения экспортного потенциала, цифровизации налоговой системы и решения проблем частного сектора.

Ключевые слова: Бразилия, США, торговая дипломатия, экспорт, импорт, инвестиции, ВТО, соглашение АТЕС, экономическое сотрудничество, налоговая система, цифровизация, внешнеторговая политика.

KIRISH

Hozirgi jadallashib borayotgan keng qamrovli savdo va raqamli dunyoda, savdo siyosati muhim omil hisoblanadi. Bunday sharoitda Braziliya va Amerika Qo'shma Shtatlari muhim geografik hudud va savdo munosabatlariga egadir. Atlantika Kengashining Adrienne Arsht Lotin Amerikasi ikkala davlat manfaatlarini ko'zlagan holda bir qator ijobiy namunalarni taqdim etadi. Asosiy maqsad ikkala davlat o'rtasidagi savdo siyosatini yaxshilash va davlatlar o'rtasida yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yishdir. 2020-yildan keyingi davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, Braziliya va Amerika Qo'shma shtatlari savdo siyosatini yaxshilashga doir bir qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, bojxona ma'muriyati va savdoni osonlashtirish bo'yicha ikki tomonlama qoidalarni yo'lga qo'yishdi. Shuningdek yaqin va so'nggi 10 yillik mobaynida 2 ta davlat ham sektorlarda yanada chuqurroq hamkorlikni rivojlantirish uchun choralarni ko'rdi. Bularga aviatsiya, energetika, turizm, mudofaa va xavfsizlik, sog'liqni saqlash, infratuzilma va avtomobilsozlik va boshqalar kiradi. Shuni aytib o'tish lozimki, Amerika Qo'shma shtatlari Braziliyaning eng katta savdo sheriklari ichida 2 o'rinni egallaydi. Raqamlarda ko'rish mumkinki u hatto Xitoydan ham o'tadi. Qo'shimchasiga AQSh xizmatlar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha Braziliyaning eksporti uchun eng muhim manzil ham hisoblanadi.

Asosiy qism. AQSh savdo sanoatida Braziliyani o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, u 12 o'rinni egallaydi²⁷. 2018 yillardagi ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Qo'shma Shtatlarda tovarlar va xizmatlar bo'yicha umumiy savdo balansi 30,6 milliard dollarni tashkil etgan. Bunda o'z o'zidan ko'rinadiki, Braziliya AQSh savdo sanoati va tovar almashinuvida asosiy o'rindadir. Braziliyaning Amerikadan

²⁷ Abrão Neto, Ken Hyatt, Daniel Godinho, and Lisa Schineller With Roberta Braga, "US-Brazil, Trade and FDI, ENHANCING THE BILATERAL ECONOMIC RELATIONSHIP", Atlantic Council-2020
<https://www.atlanticcouncil.org/in-depth-research-reports/report/us-brazil-trade-and-fdi-enhancing-the-bilateral-economic-relationship/>

qiladigan import mahsulotlari, bular samolyotlar, mashinalar, neft mahsulotlari, elektronika, optik va tibbiy asboblardir.

So'z isboti bilan degandek ikki mamlakat o'rtasida Savdoni yanada rivojlantirishga oid bir qancha shartnomalar imzolagan va o'z natijasini bergan. Xususan, 2020-yil 19-oktabr kuni imzolagan Amerika Qo'shma Shtatlari va Braziliya Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimi²⁸ Savdo qoidalari va shaffofligi bo'yicha yangi protokol bunga misoldir. Unda Prezident Tramp va Prezident Bolsonaro Qo'shma Shtatlar va Braziliya o'rtasidagi farovonlik sherikligi va yangi savdo tashabbuslari istagini o'rtoqlashib. Protokol samarali bojxona tartib-qoidalari, shaffof tartibga solishni rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi mustahkam kurash bo'yicha ikki mamlakat uchun umumiy standartlarni o'rnatish uchun mavjud ATECdan foydalanadi.

Endi e'tiborimizni asosiy qism soliqni rivojlantirishga qarataylik, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Amerika investitsiya kiritishda yuqori o'rinlarda turar ekan, bunda Braziliya unumli foydalanishga harakat qilmoqda, lekin asosiy muammo bu soliq tizimidir. Shu sababli ham so'nggi yillarda mamlakat aynan soliq tizimidagi raqamlashtirishga e'tibor qaratib, jarayonni bir muncha rivojlantirmoqda.

Protokolning aynan shu tizimni yaxshilanishiga qaratilgani, bu jarayon jiddiy qabul qilinib, eksport va importda muammolarni bir muncha kamaytirishga hizmat qiladi. Shuningdek, ATEC savdo va investitsiyalar bilan bog'liq keng ko'lamli masalalar bo'yicha ishtirok etish imkonini berdi. Qo'shma Shtatlar va Braziliya bugungi Protokolni amalga oshirar ekan, ular tovarlar va xizmatlar savdosini oshirish va keyingi sarmoyalarni rag'batlantirish yo'llarini o'rganishda davom etadilar.

Braziliyada prezident almashinuvi va Bolsonaroni prezidentlik lavozimiga kirishishi. 2 ta davlat o'rtasida savdo siyosatini bir qancha bo'lsada o'zgartirdi. Xususan, Braziliya prezidenti AQSh prezidenti Donal Trump bilan 2019 yilda ko'rishar ekan, unda bir qancha amaliy kelishuvlarga erishildi.

- Mudofaa xavfsizligi va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish;
- Ish o'rinlarini ko'paytirish;
- Savdo investitsiyalar yo'lidagi to'siqlarni kamaytirish;

Shu o'rinda Braziliya Qo'shma Shtatlarga cho'chqa va bug'doy bozorlariga kirishini osonlashtirish vadasini ham berib o'tdi. Bunga javoban Qo'shma Shtatlar Braziliyaning mol go'shti ekportini qayta tiklash choralari aytib ta'kidlab o'tgan. Bunda Braziliya bug'doy importining 750 000 metrik tonna (MT) bo'yicha yillik bojsiz tarif stavkasi kvotasi (TRQ) ni uzaytirish majburiyatini bajargan. Qirol ishlab chiqarish va sotishda asosiy o'rinni egallaydigan Qo'shma Shtatlar, Braziliyaning NATO ga a'zo emasligini va natijada Brazila kelgusida hech qanday muammosiz qurol sotib olishi mumkiligini ham alohida ta'kidlab o'tgan. Qo'shimcha kiritish lozimki, Amerika Qo'shma Shtatlari Braziliya dunyodagi beshinchi yirik hudud

²⁸ <https://ustr.gov/sites/default/files/files/Press/Releases/ATECProtocolUSBREnglish.pdf>

ekanligi, yettinchi eng ko'p mamlakat va to'qqizinchi yirik iqtisodiyot sifatida xalqaro munosabatlarda ta'sirchan rol o'ynash imkoniyatiga egadir deb ta'kidlaydi. Shu sababli Braziliyaning potentsial strategik ahamiyatini hisobga olgan holda, Kongress a'zolari ba'zan AQSh-Braziliya hamkorligini mustahkamlash yo'llarini o'rganib chiqdilar va Braziliya vaqti-vaqti bilan AQShning Lotin Amerikasidagi siyosatining asosiy nuqtasi bo'lib keldi.

Brazil Boosts Imports From US in 2025			
Sharp Increase in Trade Highlights Economic Ties			
Country		2025	Change
Brazil to US	Import	\$21.7B	11.5
Brazil to US	Export	20.0B	4.4
Brazil to US	Deficit	1.7B	—

Source: Ministry of Development, Industry and Foreign Commerce
Note: Data shown are for Jan-Jun and compare to the same period in 2024.

Bloomberg

1-rasm. Braziliyaning Amerikadan qilgan import va eksporti raqamlarda.

E'tiborimizni Braziliyaning Amerika bilan bo'lgan import va eksport salohiyatiga ham qaratsak. 1-jadvalda ko'rinadiki, Braziliyaning Amerikadan qilgan import qiymati 2025 yilda \$21.7 mld tashkil etmoqda, o'sish esa +11.5%. Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, Braziliyaning AQShdan importi tez sur'atlarda oshgandir.

Bu jarayon bir nechta omillarga bog'liq bo'lish ehtimoli bordir. Hususan, sanoat mahsulotlari, texnologiyalar, uskunalar yoki xomashyolar shular jumlasidandir.

Eksport jihatidan raqamlar 2025 yilda \$20.0 mlrd tashkil etmoqda, o'sish +4.4%. Bu yerda Braziliya AQShga qishloq xo'jaligi, ruda, energiya yoki tayyor mahsulotlarni ko'proq sotganini anglatadi.

Lekin bir jihatni inobatga olish joizki, eksport oshganligiga qaramay, importdan past sur'atlarda o'smoqda.

Natijada mamlakat AQSh ga nisbatan defitsitga kirib qolmoqda. Bu esa 2025 yilgi qiymati, \$1.7 mlrd tashkil etganini ko'rsatmoqda.



2-rasm. Amerika Qo'shma Shtatlarining Braziliyadan qilgan turli soha va mahsulotlarda importi ko'rsatkichlari²⁹.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki davlat o'rtasidagi yillar erishilgan ishonch va kelishuvlar ularning oldi berdisida ham o'z aksini topmoqda. Bularni biz raqamlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki Braziliya JST ga 1995-yil 1-yanvarda a'zo bo'lgan. Shu sababli ikki mamlakat o'rtasida turli muammolar va ularning ma'lum yechimlari hal qilinib kelinmoqda. Masalan, so'nggi oylarda e'lon qilingan va Jahon Savdo Tashkilotining shtab-kvartirasida o'tkazilgan matbuot anjumani munosabati bilan ochilish so'zlariga e'tiborimizni qaratsak, unga ko'ra Braziliya tomoni tarafdin quyidagi masalalar ko'tarilgan va AQSH bilan ishlash kerakligi borasida muzokalar o'tkazilgan.

Ochilish marosimidagi nutqdan parcha "JST va savdo masalalarini yorituvchi ommaviy axborot vositalari bilan bu yerda bo'lish har doim yoqimli . Menga yoshroq bo'lgan eski kunlarni eslatadi, ehtimol, ikki tur oldin.

Qanday bo'lmasin, birinchi navbatda, men yolg'iz Braziliya nomidan gapirayotganimni va biron bir guruh nomidan gapirmasligimni aniqlashtirishni xohlayman, garchi biz guruhlarda, xususan, G-20da qilgan ba'zi xulosalarimiz yoki diskussiyalarimizni tasodifan eslatib o'tishim mumkin. a'lumki, biz bu muzokaralarda hal qiluvchi pallaga yaqinlashmoqdamiz - bu ko'p gapirish joyidir, lekin bu haqiqatan ham biz ba'zi faktlarga duch kelishimiz va qarorlar qabul qilishimiz kerak bo'lgan daqiqalardan biridir.

Mening umumiy taassurotim shuki, biz kerakli natijaga unchalik yaqinlashmayapmiz, garchi men turli tomonlardagi muzokarachilarning yaxshi niyatini bildirsam ham, lekin negadir bo'shliqlar kamayayotgani yo'q.

²⁹ <https://www.usimportdata.com/blogs/us-imports-exports-trade-relations-with-brazil>

Agar orqaga qarasam, ehtimol ikki yoki uch oy oldin - bu qisman idrok masalasi bo'lishi mumkin, nafaqat haqiqat masalasi - lekin menda bo'shliqlar haqiqatan ham kengaygan yoki hech bo'lmaganda yanada qattiqroq bo'lib qolgan degan taassurot bor. Demak, yaqin kunlarda oldimizda juda qiyin vazifa turibdi. Paskal Laming oldida juda qiyin vazifa bo'ladi, lekin turli mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhlar vakili bo'lgan barchamiz uchun qiyin vazifa bo'ladi.

Bu barchamiz ishtirok etishimizni inkor etmaslik, albatta, kamaygan mamlakatlarni saqlab qolish va zaif iqtisodlar uchun istisnolarni saqlab qolish va hokazo, lekin biz hammamiz bu muzokaralarda o'z hissamizni qo'shishimiz kerakligini bilamiz, hammamiz u yoki bu yo'l bilan yon berishimiz kerak, lekin, albatta, bu birinchi navbatda o'z kuchimiz bilan mutanosib bo'lishi kerak, ikkinchidan, barchamiz iqtisodiyotimizni o'zgartirishimiz kerak. boshidanoq rivojlanish va qishloq xo'jaligi raundiga aylandi.

Asosan rivojlanish va qishloq xo'jaligiga nisbatan asosiy harakatlar qilish kerak. Men boshqa sohalarda - NAMA, xizmatlar - harakatlar qilinmasligi kerak, deb aytmayapman.


Ehtimol, ular shunday bo'lishi kerak va shunday bo'ladi, lekin haqiqiy dalda va haqiqiy etakchilik dunyoning boy qismidan kelishi kerak va biz buni etarlicha ko'rmadik"³⁰.

Tahlil. Qo'shimchasiga, Braziliya uchun ikki tomonlama erkin savdo bitimlariga kiritilgan savdoni yengillashtirish qoidalari global qiymat zanjirlarida ishtirokini chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, savdo bilan bog'liq infratuzilmaning zaifligi va institutlarning sifati Braziliyaning chegaralararo savdosini samarali yo'lga qo'yishdagi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda³¹. Maqola so'nggi oylarda e'lon qilinganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, muzokaralarni aynan o'sha vaqtlari muhim pallaga kirganligi ikkita davlat foydasiga ishlaganligini ko'ramiz. Keyingi navbatda esa, aynan 2006 yildan keyingi ikki davlat savdosiga e'tibor beramiz va tahlil qilamiz.

³⁰ <https://www.gov.br/mre/en/content-centers/speeches-articles-and-interviews/minister-of-foreign-affairs/speeches/celso-amorim-2003-2010/opening-remarks-on-the-occasion-of-the-press-conference-held-at-the-headquarters-of-the-world-trade-organization-geneva-switzerland-6-29-2006>

³¹ Vagetti, Vitória & Winter, Luís. (2025). Investing in Trade Diplomacy and in Trade Facilitation: The Growth of Brazil's Exports. Beijing Law Review. 16. 1686-1698. 10.4236/blr.2025.163083.

https://www.researchgate.net/publication/395261094_Investing_in_Trade_Diplomacy_and_in_Trade_Facilitation_The_Growth_of_Brazil%27s_Exports




3-rasm. Amerika Qo'shma Shtatlari va Braziliya savdosi 2008-2024 yillar.

Rasmdan ko'rish mumkinki, ikki davlat savdosi turli narsalarda kechgan, raqamlar tahlili jihatidan, yog'och, kimyoviy narsalar va transportda raqamlar yuqori.

Brazil maintains higher tariffs on its overall imports than the US

Simple average most-favored-nation tariff applied on imports from the other country and globally (2024)



4-rasm. Braziliya va Amerika Qo'shma Shtatlarining o'zaro amalga oshirgan import hajmi³².

Raqamlar, Braziliya Amerika Qo'shma Shtatlariga nisbatan defitsitda ekanligini ta'kidlaydi. Unda qishloq qo'jaligi mahsulotlari muhim o'rinni egallamoqa

³² <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/new-atlanticist/the-numbers-that-define-the-us-brazil-trade-partnership/>

Ikki tomonlama munosabatlarda Qo'shma Shtatlar uchun asosiy bezovta qiluvchi omillardan biri Braziliya tariflari bo'ldi, xususan, etanol yoqilg'isi savdosi kabi muhim tarmoqlarda. Braziliya uzoq vaqtdan beri barcha mahsulotlar va barcha mamlakatlar uchun Qo'shma Shtatlarga qaraganda yuqori tariflarni saqlab kelmoqda. Oddiy o'rtacha ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Braziliyaning import bojlari Qo'shma Shtatlardan, ayniqsa qishloq xo'jaligidan tashqari tovarlarga nisbatan oshadi. Savdo oqimiga moslashtirilgan bo'lsa ham, Braziliya tariflari umumiy darajada yuqori bo'lib qolmoqda - garchi Qo'shma Shtatlar qishloq xo'jaligining ayrim importlarini qattiqroq himoya qiladi.

Biroq, Qo'shma Shtatlardan farqli o'laroq, Braziliya Mercosur bojxona ittifoqi doirasidagi majburiyatlari tufayli o'z tariflarini bir tomonlama ravishda osongina pasaytira olmaydi, bu uning savdo siyosatidagi moslashuvchanligini cheklaydi. Shu bilan birga, Braziliyaning yuqori tariflari Merkosur bo'lmagan savdo sheriklarining ko'pchiligi duch keladigan tizimli dinamikadir va ular AQSh mahsulotlariga nisbatan kamsituvchi bo'lishi shart emas, chunki Braziliya barcha xorijiy mahsulotlarga o'xshash stavka qo'yadi.

So'nggi kundagi ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 15-oktabrda aynan savdo masalalari bo'yicha yana muzokaralar o'tkazildi. Davlat kotibi Marko Rubio va Amerika Qo'shma Shtatlari Savdo vakili Jeymison Greer Braziliya tashqi ishlar vaziri Mauro Vieyra bilan uchrashdi va savdo va davom etayotgan ikki tomonlama masalalar bo'yicha juda ijobiy muzokaralar olib bordi. Kotib Rubio, Elchi Greer va Tashqi ishlar vaziri Vieyra yaqin kelajakda bir nechta jabhalarda hamkorlik qilish va muhokamalar o'tkazish va oldinga ish yo'lini belgilashga kelishib oldilar. Ikkala tomon ham imkon qadar tezroq prezident Trump va prezident Lula o'rtasidagi uchrashuvni belgilash uchun birgalikda ishlashga kelishib oldilar³³.



5-rasm. 2019-yil AQSH va Braziliya prezidentlari uchrashuvidan lavhalar.

³³ <https://www.state.gov/releases/2025/10/u-s-brazil-meetings/>

Yuqorida aynan Amerika Qo'shma Shtatlari va Braziliya 2011 yilda Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimni (ATEC) imzolaganiga to'xtalgan edik, endi esa ushbu bitim doirasidagi amaliy natijalarni tahlil qilsak. AQShning Braziliya bilan tovar va xizmatlar savdosi 2024-yilda taxminan 127,6 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 12,2 foizga (13,9 milliard dollar) ko'p. AQShning Braziliya bilan umumiy tovar savdosi 2024-yilda taxminan 91,5 milliard dollarni tashkil etdi. 2024-yilda AQShning Braziliyaga tovarlar eksporti 49,1 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 10,3 foizga (4,6 milliard dollar) ko'p. 2024-yilda Braziliyadan AQSh tovarlari importi jami 42,3 milliard dollarni tashkil etdi ³⁴ (8,2 milliard dollardan 8,2 foizga ko'p).

Braziliya bilan profitsit 2024 yilda 6,8 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2023 yilga nisbatan 23,9 foizga (1,3 milliard dollar) o'sdi. AQShning Braziliya bilan jami xizmatlar savdosi (eksport va import) 2024 yilda taxminan 36,1 milliard dollarni tashkil etdi. 2024 yilda AQShning Braziliyaga xizmatlar eksporti 29,6 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2023 yilga nisbatan 24,4 foizga (5,8 milliard dollar) ko'p. AQShning Braziliya bilan xizmatlar savdosi profitsiti 2024 yilda 23,1 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2023 yilga nisbatan 31,9 foizga (5,6 milliard dollar) o'sdi.

Xulosa.Tahlillarni birlashtirgan holda, umumiy yozadigan bo'lsak, Braziliya va AQSh o'rtasida savdo aloqalari kuchaymoqda. Shuningdek, raqamlar Braziliya Tashqi savdoda AQSh mahsulotlariga qaramligini ko'rsatadi. Ijobiy taraflari yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 2 ta davlat o'rtasida savdo aloqalari yaxshilanmoqda.

Umuman olganda, 2 ta davlat muzokaralari, 2025 yilgi natijalarga qaraydigan bo'lsak,2020 yilga nisbatan o'sishga erishilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, AQSh Braziliyaning eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo'lib, eksport va import hajmi yildan-yilga ortmoqda.

Shuningdek, so'nggi yillardagi uchrashuvlar, jumladan 2025-yil oktabr oyidagi muzokaralar, ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish niyatini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda, xususan qishloq xo'jaligi va soliq tizimi bo'yicha muammolar mavjud bo'lsa-da, tomonlar bu masalalarni JST doirasida tinch yo'l bilan hal etish yo'lini tanlamoqda.

Lekin ba'zi takliflar orqali davlatlar orasida savdo aloqalarini yanada oshirish mumkin.

Masalan, birinchidan,davlatlar xususiy sektorlar muammosini hal qilishi lozim.

Ikkinchidan, jadvallar va tahlillardan ko'rinadiki,Braziliya eksportni ko'paytirishi yoki AQSh dan importni diversifikatsiya qilishi kerak. Bu Braziliya uchun muhim omil hisoblanadi.

³⁴ <https://ustr.gov/countries-regions/americas/brazil>

ADABIYOTLAR VA HAVOLALAR:

1. Abrão Neto, Ken Hyatt, Daniel Godinho, and Lisa Schineller With Roberta Braga, “US-Brazil, Trade and FDI, ENHANSING THE BILATERAL ECONOMIC RELATIONSHIP”, Atlantic Council-2020

<https://www.atlanticcouncil.org/in-depth-research-reports/report/us-brazil-trade-and-fdi-enhancing-the-bilateral-economic-relationship/>

2. Vagetti, Vitória & Winter, Luís. (2025). Investing in Trade Diplomacy and in Trade Facilitation: The Growth of Brazil's Exports. Beijing Law Review. 16. 1686-1698. 10.4236/blr.2025.163083.

https://www.researchgate.net/publication/395261094_Investing_in_Trade_Diplomacy_and_in_Trade_Facilitation_The_Growth_of_Brazil%27s_Exports

3. <https://ustr.gov/sites/default/files/files/Press/Releases/ATECProtocolUSBREnglish.pdf>

4. <https://www.usimportdata.com/blogs/us-imports-exports-trade-relations-with-brazil>

5. <https://www.gov.br/mre/en/content-centers/speeches-articles-and-interviews/minister-of-foreign-affairs/speeches/celso-amorim-2003-2010/opening-remarks-on-the-occasion-of-the-press-conference-held-at-the-headquarters-of-the-world-trade-organization-geneva-switzerland-6-29.2006>

6. <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/new-atlanticist/the-numbers-that-define-the-us-brazil-trade-partnership/>

7. <https://www.state.gov/releases/2025/10/u-s-brazil-meetings/>

8. <https://ustr.gov/countries-regions/americas/brazil>